

# Butunjahon kreativ iqtisodiyot konferensiyasi 2024 yakunlari

[britishcouncil.uz/programmes/arts/insights-world-conference-creative-economy-2024](http://britishcouncil.uz/programmes/arts/insights-world-conference-creative-economy-2024)

2024-yil 2–4-oktabr kunlari biz bilim hamkor sifatida O'zbekistonda, Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon kreativ iqtisodiyot konferensiyasida ishtirot etdik. Konferensiya innovatsiyalar va barqaror rivojlanishni rag'batlantirishdagi kreativ sektorning rolini muhokama qilish uchun global ekspertlar, siyosatchilar va kreativ soha yetakchilarini birlashtirdi.

Kreativ iqtisodiyot rivojiga bo'lgan sadoqatimizning bir qismi sifatida, Global Creative Economy Council (GCEC) bilan hamkorlikda, biz kreativ sektor oldida turgan asosiy chaqiriqlar va imkoniyatlarni muhokama qilgan beshta sessiyani tashkil qildik. Sessiyalarni mintaqa uchun dolzarb qilish va eng yaxshi xalqaro tajribalarni qo'llash uchun biz Buyuk Britaniya va Markaziy Osiyodan ekspertlar va spikerlarni jalb qildik.

Ushbu sessiyalar mazmunli munozaralar, tajriba almashish va kreativ industriyalar turli jamoalarda ijodiy o'zgarishlarga qanday hissa qo'shishi mumkinligini o'rganish uchun maydon bo'ldi.

## Asosiy fikrlar

### Sessiya 1 – Qanday qilib ijodiy industriyalar qadriyatlarini qayta ko'rib chiqish va mintaqaga investitsiyalarni jalb qilish mumkin?

Ushbu sessiyada ekspertlar, ijodiy industriyalar qadriyatlarini qayta baholab, uzoq muddatli investitsiyalarni qanday jalb qilish haqida fikr almashishdi. Shuningdek, ta'sir ko'rsatish usullari va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan asosiy ko'rsatkichlar muhokama qilindi.

**Spikerlar:** Nastia Goncharova (Qozog'iston, mustaqil tadqiqotchi), Indira Uzbekova (Qirg'iziston, Markaziy va Janubi-Sharqi Osiyo bo'yicha Accelerate Prosperity fondlari mintaqaviy menejeri), Endi Pratt (Buyuk Britaniya, global ijodiy iqtisodiyot bo'yicha UNESCO professori va Madaniy iqtisodiyot professori, Shahar universiteti, London), Laura Callanan (AQSh, Upstart Co-Lab asoschisi va sherigi)

**Moderator:** Daniyar Amanaliev (Qirg'iziston, ololo guruhining hamasrchisi va rahbari)

### Sessiya 2 – Ijodiy iqtisodiyotning global ko'rinishi

GCEC a'zolari global tendensiyalarni, vositachilik agentliklari va markazlar rolini muhokama qilishdi. Bunda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga mos keladigan ijodiy siyosatlarning ahamiyati ta'kidlandi.

**Spikerlar:** Daniyar Amanaliev (Qirg'iziston, ololo guruhining hamasrchisi va rahbari), Avril Joffe (Janubiy Afrika, Madaniy tadbirkorlik va siyosat bo'yicha UNESCO professori, Vits san'at maktabi, Witwatersrand universiteti), Andrea Dempster Chung (Yamayka, Kingston Creative asoschisi va ijrochi direktori), Laura Callanan (AQSh, Upstart Co-Lab asoschisi va sherigi)

**Moderator:** Jairaj Mashru (Hindiston, innovatsiya va strategiyalar bo'yicha ekspert)

### **Sessiya 3 – Ta'lif va amaliyotni bog'lash: ijodiy industriyalar uchun saboqlar**

---

Buyuk Britaniya va O'zbekiston ekspertlari talabalarni ijodiy iqtisodiyotda ishlashga yaxshiroq tayyorlash uchun nazariy o'qitishni amaliyot bilan birlashtirish zarurligini ta'kidladilar.

**Spikerlar:** Umida Zunnunova (O'zbekiston, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti professori), Anastasios Maragiannis (O'zbekiston, Dizayn bo'yicha kreativ va raqamli sanoatlar kollejining o'rnbosar rahbari)

**Moderator:** Viren Lall (Buyuk Britaniya, ChangeSchool boshqaruvchi direktori)

### **Sessiya 4 – Poytaxtdan tashqaridagi hududlarda ijodiy loyihalarning mahalliy iqtisodiyotga ta'siri**

---

Bu sessiya, poytaxtdan tashqaridagi kichik shaharlarda ijodiy loyihalar qanday qilib mahalliy iqtisodiyotlarni rivojlantirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashini namoyish etdi.

**Spikerlar:** Malika Urazgalieva (Qozog'iston, kreativ prodyuser, direktor va YEMAA zamonaliv san'at markazining hamasosi), Yaroslav Minkin (O'zbekiston, ARTSTATION MCHJ va STAN NNTning hamasosi), Rebekka Swarray (Buyuk Britaniya, Buyuk Manchester Kombinatsiyasi boshqaruvidagi kreativ madaniyat va kechki iqtisodiyot bo'yicha katta siyosat xodimi)

**Moderator:** Rehana Mughal (Buyuk Britaniya, British Council'da kreativ iqtisodiyot bo'yicha direktor)

### **Sessiya 5 – Ijodiy iqtisodiyot amaliyoti: ijodiy iqtisodiyotning o'sishini ta'minlash uchun amaliy siyosat yondashuvlari**

---

GCEC a'zolari Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasining turli shaharlarida amalga oshirilgan muvaffaqiyatli ijodiy iqtisodiyot tashabbuslari bilan o'rtoqlashdilar. Ushbu tashabbuslar siyosat, festivallar va investitsiyalar atrofida muhokama qilindi.

**Spikerlar:** Leandro Valiati (Braziliya, tadqiqotchi, o'qituvchi va kreativ va madaniy industriyalar sohasida global bilim almashinuvi yetakchisi), Jairaj Mashru (Hindiston, innovatsiyalar va strategiyalar bo'yicha ekspert), Omag Nagati (Misr, amaliy me'mor, shahar

rejalashtiruvchisi va CLUSTER ning hamasosi), Jon Zeff (Buyuk Britaniya, mustaqil siyosat eksperti va Creative Industries Policy and Evidence Centre'dagi Kreyativ industriyalar bo'yicha maslahat kengashining raisi)

**Moderator:** Jon Nyubigin (Buyuk Britaniya, Londondagi merning kreativ industriyalar bo'yicha elchisi va GCEC ning birinchi raisi)

Siz konferensiya fotosuratlarini bizning [Flickr](#) akkauntimizda ko'rishingiz va spikerlar taqdimotlarini 'Downloads' bo'limidan yuklab olishingiz mumkin.

## Tashqi havolalar

---

[Global Creative Economy Council \(GCEC\)](#)